Jabborova Shahrida

Osiyo xalqaro universiteti magistri

IBN SINONING IJTIMOIY VA AXLOQIY QADRIYATLARINING PEDAGOGIK TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada mashhur alloma Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlari, ularning pedagogik ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim tizimi uchun metodologik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ibn Sino merosida inson kamoloti, axloq, odob, jamiyatdagi munosabatlar, adolat, mehnatsevarlik, ilmparvarlik, mas’uliyat, rahm-shafqat kabi fazilatlarning o‘rni alohida yoritilgan bo‘lib, ular shaxs shakllanishi va tarbiyasida bosh mezon sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda Ibn Sinoning “Donishnoma”, “Kitob ash-shifo”, “Kitob un-najot”, “Tib qonunlari” singari asarlaridagi pedagogik va axloqiy qarashlar tarixiy-falsafiy va pedagogik tahlil asosida ko‘rib chiqiladi, ularning bugungi ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, o‘tmish allomasi tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi bilan uyg‘unlik jihatlari ko‘rsatib beriladi. Maqolada Ibn Sino axloqiy konsepsiyasining hozirgi yoshlar ma’naviyati, ularning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va barkamol shaxs sifatida shakllanish jarayoniga ta’siri nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit So‘zlar

Ibn Sino, ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, pedagogik ta’sir, tarbiya, komil inson, shaxs kamoloti, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ta’lim falsafasi, sharq mutafakkirlari merosi.

KIRISH

Sharq uyg‘onish davrida yashab ijod etgan buyuk mutafakkir va tabib Abu Ali ibn Sino nafaqat tibbiyot, falsafa, mantiq, tabiiy fanlar sohasida, balki ta’lim-tarbiya, axloq va jamiyatshunoslik borasida ham chuqur ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surgan allomadir. Uning boy ilmiy merosi bugungi kunda ham nafaqat tarixiy qadriyat sifatida, balki amaliy-pedagogik manba, ta’lim strategiyalarini boyituvchi falsafiy asos sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarilgan. Bu jarayonda milliy-ma’naviy merosga, xususan, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Alisher Navoiy singari allomalar pedagogik merosiga qaytish, ularni zamonaviy ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa sanaladi. Ta’lim nazariyasi va amaliyotida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, uzluksiz ma’naviy tarbiya tamoyillari tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda Ibn Sinoning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqish zarurati vujudga keladi. Chunki alloma o‘z asarlarida inson tabiatini, uning ruhiy olamini, jamiyat bilan o‘zaro munosabatini, axloqiy me’yorlar asosida kamol topish jarayonini izchil va tizimli tarzda asoslab bergan.

Ibn Sino ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajralmas jarayon deb biladi. Uning fikricha, haqiqiy ilm ma’naviy poklik, ezgu niyat, jamiyatga foyda keltirishga yo‘naltirilgan faoliyat bilan uyg‘unlashgandagina komil insonni shakllantiradi. Shu ma’noda, mazkur maqolada Ibn Sinoning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlari, ular orqali shaxsni kamolotga yetkazish jarayoniga bo‘lgan munosabati, shuningdek, bugungi pedagogik amaliyot uchun ushbu g‘oyalarning tatbiqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola mavzusining dolzarbligi, bir tomondan, globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, virtual makonning kengayishi tufayli yoshlar ongiga turli g‘oyaviy tahdidlar, yot axloqiy qarashlar kirib kelayotgan hozirgi sharoitda milliy-ma’naviy immunitetni mustahkamlash zarurati bilan belgilanadi. Ikkinchi tomondan, ta’limda faqat bilim berishga qaratilgan yondashuvdan voz kechib, uning tarbiyaviy, ma’naviy, axloqiy komponentlarini kuchaytirish ehtiyoji bilan ham bog‘liqdir. Ibn Sino merosida ilm va axloqning uyg‘unligi, nafaqat aqliy, balki axloqiy-irodaviy sifatlarni ham rivojlantirish g‘oyasi markaziy o‘rin egallaydi.

Shuningdek, Ibn Sino ijtimoiy munosabatlarni, insonning jamiyatdagi o‘rnini, uning boshqalar bilan muomala madaniyatini, adolat, tenglik, hamkorlik, mehnatga munosabat, boylik va qashshoqlik muammolarini axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Bu esa, zamonaviy pedagogikaning fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy faollik, ijtimoiy adolat, ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish kabi yo‘nalishlari bilan bevosita hamohangdir. Shu nuqtai nazardan, maqolada Ibn Sino ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarining mazmun-mohiyati ochib beriladi, ular asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi va ushbu qadriyatlarni hozirgi ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash yo‘llari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Ibn Sino shaxs, jamiyat va axloq masalalarini o‘zining ko‘plab asarlarida izchil yoritgan. U insonni “aql va nafsning mujassam ifodasi” sifatida tasvirlar ekan, uning kamolotga erishishi uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar qatorida ilm, tarbiya, muhit, mehnat va axloqiy me’yorlarga amal qilishni ko‘rsatib o‘tadi. Alloma nazarida axloq insonni inson qiladigan eng muhim mezon bo‘lib, unda shaxsning o‘ziga, oilasiga, jamiyatga, tabiatga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. Shu bois u axloqni nazariy tasniflash bilan birga, uni amaliy hayotga, ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirish zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning axloqiy konsepsiyasida “o‘rtacha yo‘l” tamoyili, ya’ni ifrot va tafritdan tiyilish, muvozanatni saqlash, aql bilan his-tuyg‘u o‘rtasida uyg‘unlikni topish g‘oyasi ustuvor o‘rin tutadi.

Alloma insonning axloqiy kamoloti haqida fikr yuritar ekan, eng avvalo, nafsni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Uningcha, nafsni tiyish, istak va ehtiroslarni aql nazorati ostiga olish, sabr, qanoat, hayo, shukronalik, halollik kabi fazilatlarni shakllantirish tarbiyaning bosh maqsadlaridan biridir. Bu jarayon esa, eng avvalo, oiladan boshlanadi, so‘ngra maktab, madrasalar va ijtimoiy muhit orqali mustahkamlanadi. Shu jihatdan qaralganda, Ibn Sino axloqiy tarbiyaning uzluksizligi g‘oyasini ilgari surganini ko‘rish mumkin. U bolalikdan boshlab, yosh davrlarining har bir bosqichiga mos axloqiy talablar, me’yorlar, mashq-usullar bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy masalalarda Ibn Sino adolat va haqiqatni yuksak qadriyat sifatida ko‘radi. U insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda adolatli bo‘lish, boshqalarning haq-huquqlarini poymol qilmaslik, jamiyat a’zolari o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam, o‘zaro hurmat muhitini shakllantirishni komil jamiyat belgisi sifatida talqin etadi. Alloma fikricha, jamiyatdagi tartib va barqarorlik, iqtisodiy farovonlik, ilm-fan taraqqiyoti, ma’naviy yuksalish bevosita adolat tamoyilining

hayotga tatbiq etilish darajasiga bog‘liqdir. Shunday ekan, bugungi ta’lim tizimida fuqarolik tarbiyasi, huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda Ibn Sino ilgari surgan adolat, haqiqatparvarlik, mas’uliyat, vijdonlilik kabi qadriyatlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino ilmni eng yuksak qadriyatlardan biri sifatida talqin qiladi. Uning nazarida, ilm aqlni charxlaydi, insonni jaholat va nodonlikdan xalos etadi, jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydi. Biroq u ilmni faqat kasbiy mahorat, boylik orttirish vositasi sifatida emas, balki axloqiy-ma’naviy kamolotga eltuvchi nur deb biladi. Shu bois alloma o‘qituvchi va ilm ahllarining axloqiy mas’uliyatiga katta ahamiyat beradi. Uningcha, haqiqiy ustoz faqat bilim beribgina qolmasdan, balki shogird qalbiga ezgulik urug‘larini sochmog‘i, o‘zining shaxsiy namunalari bilan halollik, odillik, kamtarlik, fidoyilikni ko‘rsatmog‘i lozim. Bu fikrlar hozirgi pedagogikaning “o‘qituvchi shaxsiy namunasi” tamoyili bilan hamohang bo‘lib, ta’lim jarayonining axloqiy mazmunini boyitishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Ibn Sinoning axloqiy-falsafiy qarashlarida mehnat qadri ham alohida o‘rin tutadi. U mehnatni nafaqat moddiy farovonlikni ta’minlovchi faoliyat, balki inson ruhini poklovchi, undagi ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiruvchi, jamiyat oldidagi burchini anglatishga yordam beruvchi omil sifatida ko‘radi. Alloma bekorchilik, xudbinlik, isrofgarchilik va hashamatparastlikni qattiq qoralaydi, mehnatsevarlik, tejamkorlik, saranjom-sarishtalik, intizomni yuksak axloqiy fazilat sifatida ulug‘laydi. Ta’lim jarayonida mehnat tarbiyasini kuchaytirish, o‘quvchilarni mehnat jarayonlarida ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish, kasbga yo‘naltirish ishlarini yo‘lga qo‘yishda Ibn Sino merosidagi ushbu g‘oyalar dolzarbligicha qolmoqda.

Alloma insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini chuqur tahlil qilar ekan, tarbiya jarayonida psixologik omillarga e’tibor qaratish zarurligini ham ko‘rsatib o‘tadi. U bolalar va yoshlarning ruhiy xususiyatlarini, qobiliyat, qiziqish, temperament, ehtiyojlar farqini inobatga olish, ularga mos metod va usullarni qo‘llash fikrini ilgari suradi. Bu jihatdan uning qarashlari zamonaviy pedagogikaning individuallashtirilgan va differensial yondashuv tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Ibn Sino nazarida, har bir inson takrorlanmas shaxs bo‘lib, u o‘ziga xos tarbiya va ta’lim yo‘lini talab qiladi. Shuning uchun ham u tarbiyachilarni shogirdlar bilan ishlashda muloyimlik, sabr, mehr-shafqat, izchillik, adolat tamoyillariga amal qilishga chaqiradi.

Ibn Sinoning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan ham bevosita uyg‘unlashadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quvchi nafaqat bilim oluvchi obyekt, balki o‘z-o‘zini kamolotga yetkazuvchi faol subyekt sifatida qaraladi. Alloma asarlarida ham insonning o‘zini anglash, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, nafsini nazorat qilish, maqsad qo‘yish va unga intilish, o‘z ustida ishlash g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. U insonni ongli mavjudot sifatida doimiy o‘zgarish, o‘sish, kamolot jarayonida bo‘luvchi murakkab tizim deb biladi. Shu ma’noda, bugungi kunda o‘quvchilarda refleksiya, tanqidiy fikrlash, maqsadli rejalashtirish, o‘z-o‘zini baholash, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda Ibn Sino merosi muhim nazariy tayanch bo‘la oladi.

Allomaning axloqiy ta’limotida oila muhitining o‘rni ham beqiyos darajada yoritilgan. U bolani eng avvalo ota-ona tarbiyalaydi, degan fikrni ilgari suradi va ota-onaning axloqiy pokligi, ilmiy saviyasi, bir-biriga bo‘lgan hurmat-e’tibori, bolaga ko‘rsatiladigan mehr-muhabbat, talablardagi izchillik, uy sharoitidagi ma’naviy muhit uning kelgusidagi shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Bu borada Ibn Sinoning qarashlari bugungi oilaviy

tarbiya konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, ota-onalar pedagogik madaniyatini yuksaltirish, ularga ma’naviy-ma’rifiy ko‘mak berish zarurligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy qadriyat sifatida insonparvarlik, rahm-shafqat, bag‘rikenglik masalalariga kelsak, Ibn Sino bu tushunchalarni faqat diniy-axloqiy doirada emas, balki umuminsoniy g‘oya sifatida talqin qiladi. U turli e’tiqod, millat, ijtimoiy tabaqadagi insonlarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish, ularning huquqlarini hurmat qilish, ehtiyojmandlarga yordam qo‘lini cho‘zish, mojaroni zo‘ravonlik emas, balki aql va muloqot orqali hal etish zarurligini uqtiradi. Bu g‘oyalar hozirgi globallashuv sharoitida, ko‘p madaniyatli va ko‘p millatli jamiyatlarda tinch-totuv yashash madaniyatini shakllantirish uchun ayniqsa muhimdir. Ta’lim tizimida tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, ekstremizm va ksenofobiyaning oldini olishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda Ibn Sino merosidagi insonparvarlik g‘oyalari nazariy asos vazifasini bajarishi mumkin. Ibn Sino axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni nazariy asoslab berish bilan birga, ularni amaliyotga tadbiq etishning muhim vositasi sifatida tarbiya metodlarini ham ko‘rsatadi. U bolani faqat nasihat qilish, qo‘rqitish, jazolash orqali emas, balki rag‘batlantirish, ishontirish, o‘rgatish, mashq qildirish, shaxsiy namuna ko‘rsatish orqali tarbiyalash g‘oyasini ilgari suradi. Alloma o‘ta keskin, zo‘ravon, hurmatsiz munosabat bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini, unda qo‘rquv, ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, jur’atsizlik kabi illatlarni keltirib chiqarishini ta’kidlaydi. Bu qarashlar bugungi pedagogik psixologiyada ham o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lib, ijobiy intizom, humanistik yondashuv, hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga asos bo‘la oladi.

Ibn Sinoning ijtimoiy-axloqiy qadriyatlari, ayniqsa, bugungi kunda yoshlarda radikal qarashlarga berilmaslik, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlarning ta’siriga tushib qolmaslik, buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, sog‘lom hayot tarziga intilish, o‘z kasbini mas’uliyat bilan bajarish, atrof-muhitni asrash, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim manbadir. Alloma fikricha, insonning eng buyuk yutug‘i – bu uning o‘zini tarbiyalashi, kamchiliklarini bartaraf etishi, doimiy ravishda ilm va ezgulikka intilishidir. Shu ma’noda, Ibn Sino merosini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga hayotiy maqsad qo‘yish va unga intilish zarurligini singdirish, mas’uliyat, qat’iyat, iroda kabi sifatlarni mustahkamlash mumkin.

Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida kompetensiyaviy yondashuv yetakchi o‘rin tutmoqda. Bu yondashuvda faqat bilim emas, balki bilimni amaliyotda qo‘llash, muloqotga kirishish, muammoni hal qilish, jamoada ishlash, axloqiy qarorlar qabul qilish, ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi ko‘nikma va malakalar rivojlantiriladi. Ibn Sino merosida ayni mana shu kompetensiyalar, xususan, axloqiy qarorlar qabul qilish, ijtimoiy vaziyatni tahlil etish, boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal etish, ilmiy dalillar asosida mulohaza yuritish qobiliyatlari haqida qimmatli g‘oyalar mavjud. Shu bois allomaning asarlarini zamonaviy darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar mazmuniga integratsiya qilish, ulardan iqtiboslar keltirish, ta’lim jarayonida muhokama, munozara, esse yozish, loyiha ishlari tashkil etishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ibn Sino tibbiyot ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olim sifatida sog‘lom turmush tarzi, gigiyena, ruhiy salomatlikka alohida e’tibor qaratadi. U insonning jismoniy va ruhiy salomatligini bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan yaxlit tizim sifatida ko‘radi. Jismoniy salomatlikni ta’minlashda to‘g‘ri ovqatlanish, me’yoriy uyqu, jismoniy mashqlar, toza havo, gigiyenaga rioya qilish, zararli odatlardan saqlanish kabi omillarni sanab o‘tadi. Ruhiy salomatlikni ta’minlashda esa, stressni boshqarish, hissiyotni nazorat qilish, ijobiy fikrlash, oila va jamiyatdagi iliq munosabatlar, ilm bilan shug‘ullanish, ma’naviy ozuqa olishning o‘rni alohida ta’kidlanadi. Bugungi ta’lim

tizimida sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarda emotsional intellektni rivojlantirish, stressga bardoshlilikni kuchaytirishda Ibn Sino qarashlaridan samarali foydalanish mumkin.

Ibn Sino ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarining pedagogik ta’sirini chuqur anglash uchun u yashagan tarixiy-shar’iy sharoitlarni ham hisobga olish lozim. O‘rta asr Sharqida ilm-fan, adabiyot, san’at, falsafa rivoji yuqori darajaga ko‘tarilgan bo‘lib, bu davr uyg‘onish davri sifatida tavsiflanadi. Bu davrda ilm olish, ustoz-shogird an’analari, madrasalar, ilmiy markazlar, kutubxonalar jamiyat hayotining muhim qismi bo‘lgan. Aynan mana shu ilmiy-madaniy muhit Ibn Sino kabi allomalarning shakllanishi va ijodiga turtki bergan. Alloma esa, o‘z navbatida, ushbu muhitni yanada boyitib, keyingi avlodlar uchun ilmiy-ma’naviy namuna yaratgan. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya tizimida ilmiy muhit yaratish, akademik halollik, ilmga hurmat, ustoz-shogird an’analarini rivojlantirish, ilmiy izlanishga rag‘bat uyg‘otish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash masalalarida Ibn Sino merosidan samarali foydalanish mumkin.

Bugungi kunda ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish jarayonida Ibn Sino asarlariga murojaat qilish, ularning zamonaviy talqini asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, darslar, treninglar, seminarlar tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Masalan, “komil inson” g‘oyasi asosida ijtimoiy loyihalar, “axloqiy tanlovlar” mavzusida munozaralar, “adolat, halollik, mas’uliyat” mavzularida insho va esse tanlovlari o‘tkazish, Ibn Sino hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ma’rifiy uchrashuvlar tashkil qilish o‘quvchilarda ma’naviy qiziqish uyg‘otishi, ularni shaxsiy kamolot yo‘liga yo‘naltirishi mumkin. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslari, multimediya darsliklar, animatsion filmlar, interaktiv platformalar orqali allomaning g‘oyalarini yoshlar ongiga mos, qiziqarli shakllarda yetkazish samarali natijalar beradi. Ibn Sino ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarining yana bir muhim jihati – bu bilim va e’tiqod, aql va vijdon o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasidir. Alloma e’tiqod va axloqni aql va ilm bilan qarama-qarshi qo‘ymaydi, balki ularni bir-birini to‘ldiruvchi, boyituvchi omillar sifatida talqin etadi. Uning fikricha, haqiqiy e’tiqod ilm bilan boyib borgandagina mustahkamlanadi, jaholat esa ko‘pincha noto‘g‘ri e’tiqod, xurofot va mutaassiblikka olib keladi. Shu bois bugungi ta’lim tizimi uchun ham ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish bilan birga, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ma’naviyat, axloqiy me’yorlarni targ‘ib qilish, yoshlarni xurofot va mutaassiblikdan asrash, ularga tanqidiy fikrlash, dalil-isbot asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini singdirish masalalarida Ibn Sino qarashlari muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Ibn Sinoning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlari nafaqat tarixiy meros, balki bugungi ta’lim tizimi uchun ham metodologik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Uning asarlarida shaxs kamoloti, tarbiya, axloq, jamiyat, ilm, mehnat, sog‘liq, adolat, insonparvarlikka oid g‘oyalar tizimli va chuqur asoslangan bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unlashadi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga nazariy asos, ta’lim tizimini insonparvarlashtirish, shaxsga yo‘naltirish, uning ijtimoiy va axloqiy salohiyatini yuksaltirishda muhim omil bo‘la oladi.

XULOSA

Ibn Sinoning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ular shaxs kamoloti, ma’naviy-axloqiy tarbiya va ta’lim tizimini insonparvarlashtirishda muhim nazariy va amaliy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Alloma merosida ilm va axloqning uyg‘unligi, shaxsning nafaqat aqliy, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan barkamol bo‘lishi, adolat,

halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, insonparvarlik, bag'rikenglik, sog'lom turmush tarzi kabi qadriyatlarning ustuvorligi alohida ta'kidlangan. Bu qadriyatlarni pedagogik jarayonga singdirish, ta'lim mazmunini ularning ruhida boyitish, o'qituvchi shaxsini mazkur fazilatlar namunasi sifatida shakllantirish, o'quvchilarda esa komil insonlik sifatlarini rivojlantirish bugungi ta'lim islohotlarining mazmuni bilan bevosita uyg'unlashadi. Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ibn Sinoning ijtimoiy va axloqiy qarashlari zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz ma'naviy tarbiya, fuqarolik va huquqiy tarbiya, kasbga yo'naltirish, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, psixologik xizmatni rivojlantirish kabi yo'nalishlar bilan uyg'un tarzda qo'llanilishi mumkin. Xususan, uning ilmga bo'lgan yuksak hurmati, ustoz-shogird munosabatlari, oila tarbiyasi, mehnat va kasb axloqi, adolat va vijdon, nafsni tarbiyalash, ijtimoiy mas'uliyat haqidagi fikrlari hozirgi o'quv dasturlariga integratsiya qilinib, dars mazmuni, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, interaktiv mashg'ulotlar orqali yoshlar ongiga singdirilishi zarur.

Shuningdek, Ibn Sino merosini o'rganish va targ'ib etish nafaqat tarixiy adolatni tiklash, buyuk ajdodlar xotirasiga hurmat ifodasi, balki yoshlar ongida milliy iftixor, Vatanga sadoqat, yuksak maqsadlarga intilish, global jarayonlarda faol va mas'uliyatli ishtirok etish kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Allomaning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlari asosida qurilgan pedagogik konsepsiya, bir tomondan, o'quvchi shaxsini komil inson sifatida kamol toptirishga, ikkinchi tomondan, jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini sog'lomlashtirishga, uchinchi tomondan esa, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, Ibn Sino merosidan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish, o'qituvchilar, ota-onalar va talabalar uchun maxsus qo'llanmalar yaratish, ta'lim siyosatida uning g'oyalariga tayangan holda ma'naviy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1983. – 256 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari (Al-Qonun fi't-tibb). – Toshkent: Fan, 1993. – 3 jild.
3. Abu Ali ibn Sino. Kitob ush-shifo. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2000. – 480 b.
4. Alimuhamedov A. Ibn Sino falsafasi va uning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – 210 b.
5. Baratov Sh.R. Shaxs kamolotida axloqiy qadriyatlarning o'rni. – Buxoro: Durdona, 2021. – 180 b.
6. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 256 b.
7. Jalolov J.J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 320 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
9. Komilov N. Tasavvuf va komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Sharq, 2005. – 240 b.